


62. Ikki xonali sonlarni taqqoslash

Tayanch soʻzlar:

oʻnliklar va birliklar
kichik
katta
teng



Naqshni takrorlang.



1. Taqqoslang.



Ikki xonali sonlarni taqqoslash ulardagi oʻnliklar sonini taqqoslash bilan boshlanadi. Qaysi sonda oʻnliklar koʻp boʻlsa, shu son katta boʻladi.

Agar oʻnliklar soni teng boʻlsa, unda birliklar soni taqqoslanadi.



2. Sonlarni taqqoslang.

3 oʻnl.	4 birl.		8 oʻnl.	4 birl.		15		18		39		7
8 oʻnl.	3 birl.		8 oʻnl.	7 birl.		20		29		63		6



3. Nomerlarni toʻgʻri tartibda yozing.


93 87 91 98 89 97 86 94 90 95

85 88 92 96

62. Ikki xonali sonlarni taqqoslash




4. Shifokor bemorlarni nomerlari tartibi bo'yicha qabul qiladi. Bemorlarni to'g'ri tartibda joylashtiring.



Agar bemorning nomeri 17 bo'lsa, uni qabulga oldin kiritish mumkinmi?



5. Termometrdagi sonlarni ayting.
Nima uchun 37 soni qizil rang bilan ajratilgan?



Ushbu termometr qanday haroratni ko'rsatyapti? Uni 37° harorat bilan taqqoslab, $>$ yoki $<$ belgisi yordamida yozing.

[illegible]

Harorati o'lgan kishining sog'lig'i haqida qanday xulosa chiqarish mumkin?

6. Shifokor Azizga 30 kun vitamin va minerallar ichishni tayinladi. Onasi har birida 10 tadan vitamin bo'lgan 3 o'ram vitamin sotib oldi. Har kuni Aziz ushbu vitaminlardan 1 donadan ichishi kerak. Shu vitaminlar Azizga 30 kunga yetadimi?

